BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI METODLAR

Omonboyeva Gulsevar Otabekovna
To‘xtasinova Gulnoza Baxodir qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabalari
E-mail: gulsevaromonboyeva 11@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarinining intelektual salohiyatini kichik maktab yoshidan boshlab yangi texnologiyalar va metodlar hamda turli aqliy zakovat o‘yinlari yordamida oshirish xususidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘quvchilar, intellekt, aqliy zakovat, metodik o‘yinlar, metodika, “Geksagon” metodi

Abstract: in this article, the thoughts on increasing the intellectual potential of elementary school students from the junior school age with the help of new technologies and methods and various mental intelligence games are presented.

Key words: primary class, students, intelligence, mental intelligence, methodical games, methodology, "Hexagon" method

Bugungi kunda aqliy zakovatni, intellektni oshirish chora tadbirlari siyosat darajasigacha ko‘tarilgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Prezidentimizning yoshlarning intellektual qobiliyatini oshirish to‘g‘risidagi qabul qilgan bir qator qonunlari buning isbotidir. O‘zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlar tashabbusi bilan 2019-yil 2-dekabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining shaxmatni rivojlantirish bo‘yicha maxsus rezolyutsiyasi qabul qilinganligi va ushbu rezolyutsiyaga muvofiq 20-iyul Butunjahon shaxmat kuni etib e’lon qilinganligi ham o‘sib kelayotgan yosh avlodning aqliy salohiyatini yanada rivojlantirish dolzarb masala ekanligidan dalolat bermoqda.

Boshlang‘ch sinflarda interaktiv salohiyat haqida gapirishimzdan oldin intellekt so‘ziga qisqacha tar‘rif keltirsak: Intellekt (lotincha: intellects — bilish, tushunish, idrok qilish) — insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o‘zgartirish, fikrlash, o‘qish-o‘rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko‘ra bilish layoqati.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini boshidanoq savod berish to‘g‘ri targ‘ib etish ularning kelaja sgini belgilaydi. Bu davrda bolalarni darslarga interaktiv metodlar orqali shakllantirsa, dars degan muqaddas so‘zni to‘g‘ri targ‘ib eta olsa o‘quvchilarni darsga qiziqishini uyg‘otsa bu o‘qituvchi uchun eng katta yutuqlardan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini aqliy hamda o‘z fikrlarini mustaqil , ravon bayon etishida avvalambor , ular o‘zlariga berilgan darsliklardan qiziqarli tarzda interfaol metodlar , aqliy rivojlantiruvchi , mustaqil fikr yurita olishga undaydigan metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan , "A4 format " , ,,aqliy hujum" , " Nuqtai nazaring bo‘lsin " , " Geksagon", "G‘ijimlangan qog‘oz ", " Tarmoqlar metodi" , " Zigzag" , "Yumaloqlangan qor" ," BBB" , " 6×6×6" metodlari o‘quchilar uchun samarali hisoblanadi."Geksagon " metodi o‘quvchi yoshlar uchun alohida e'tiborlidir. Bu metodda o‘quvchi bolalar o‘tilgan mavzularni mustahkamlaydi hamda tegdoshlarining savollari ustida bosh qotirishadi. Uch guruh bolalar o‘zlariga nom qo‘yishadi: birinchi guruh " To‘plamlar",ikkinchi guruh " top‘lamlarning qismlari", uchinchi guruh esa , "Mulohaza ". Masalan shu tartibda nom olishsa, endi bu mazvular yuzasidan olti burchakli uchburchaklarga o‘z atamalarini ketma-ketlikda tartib bilan, pazzl shaklida joylashadi. So‘ngra esa har bir guruh o‘zlarining savollarini almashishdi. Birinchi guruh boshqa guruh bilan, shunda o‘quvchilar tengdoshlari tuzagan shartga muvofiq bosh qotirishadi. Bolalar bunda jamoaviy ishlashni ham o‘rganishadi, zehni charxlanadi . Bunday metodlardan aqliy zehnni kuchliroq oshirish maqsadida bola uyda vaqti ham ota onalar tomonidan foydalanshsa ham bo‘ladi. Yana bir jihatni e'tibordan chetda qoldirmasak, o‘quvchilarning tashabbuskorligini, ziyrakligini, mustaqil fikr yurita olishi uchun atrof muhitidagi insonlar ham ularga katta ta'sir o‘tkazishadi. Masalan misol qiladigan bo‘lsak, ularning ota onalari. Ota onalari bolalariga boshidanoq o‘rnak bo‘lib o‘zlarini ko‘rsata olishsa, bola ham asta sekin ular tomon asta odimlay boshlaydi. Ular qanday bolaga o‘rnak bo‘la olishlari mumkin? Oila muhiti avvalambor , bola uchun eng katta mativatsiya o‘chog‘i hisoblanadi. Ota onalar qancha ilmli bo‘lsa, bola ham shuncha zehni o‘tkir bo‘ladi. Bola ulardan o‘rnak olib, katta kelajak sari kichik kelajak avlod yoshlarimiz odimlay boshlashadi. Ularning aqliy intelekti shakllanishida esa hamma hammaning o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bog‘cha yoshi davridan o‘tib kichik maktab yoshiga yetb keladi va unda krizis ya'ni, boshqa davr muhitiga moshlashishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bog‘cha davrida o‘quvg‘inlarga sodda tilda sanoq, alfabitlar o‘rgatilgan bo‘lsa , endi maktab davriga kelib esa sanoqlardan yordamida sonlarni qo‘shish, alifbo harflari yordamida esa harflarni to‘g‘ri bir biriga ulagan holda jumlalarni o‘qish kerak bo‘ladi. Bunda bolalar qiyinchiliklarga duch kelishdi. Bunday hollarda o‘quvchilarni ongini oshirishga , maktab davriga moslashtirishga, aqliy zakovatini maktab davriga monand qo‘yishga interaktiv metodlar qo‘llash bolalar va o‘qituvchi o‘zi uchun ham ancha samarali bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh., 2021-yil 14-yanvar, PQ-4954-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi PQ-4954-son qaroriga 1-ILOVA. https://lex.uz/docs/-5222869

2. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLAR VA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH Turakulova Mexribon Choriyevna Jarqo‘rg‘on tumani 47-sonli umumta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Turakulova Adolat Choriyevna Jarqo‘rg‘on tumani 34-sonli umumta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinflarda-interfaol-metodlar-va-zamonaviy-texnalogiyalardan-foydalanish/viewer

3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Intellekt